IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: XP67020032

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TRANSPORT VAZIRLIGI HUZURIDAGI
TRANSPORT NAZORATI INSPEKSIYASI

# BUYRUQ

14 may 2024 yil. **282-son**

## O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Transport nazorati inspeksiyasida jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlarni ko'rib chiqish tartibini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida" 2017-yil 11-sentabrdagi O'RQ-445-son Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining "Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risida" 2018-yil 7-maydagi 341-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomi talablarini to'la-to'kis ta'minlash, shuningdek, Transport nazorati inspeksiyasida murojaatlar bilan ishlash tartibini takomillashtirish maqsadida,

**BUYURAMAN:**

1. Transport nazorati inspeksiyasiga kelib tushgan "Murojaatlarni ko'rib chiqish tartibi" ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Transport nazorati inspeksiyasi boshlig'ining o'rinbosarlari, tarkibiy va hududiy bo'linma boshliqlari mazkur buyruq bilan tasdiqlangan Tartib talablariga qat'iy rioya etilishini ta'minlasin.

3. Transport nazorati inspeksiyasida murojaatlar bilan ishlash bo'yicha vakolatli shaxs etib - boshliq o'rinbosarlari, tarkibiy va hududiy bo'linmalari boshliqlari, murojaatlarni ko'rib chiqilishini nazorat etuvchi mas'ul shaxs etib - murojaatlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i (O.Abdullayev) tayinlansin.

4. Devonxona (D.Fazilova) ushbu buyruqni tegishligi bo'yicha inspeksiyaning tarkibiy va hududiy bo'linmalariga yetkazilsin.

5. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

**Boshliq** **J.A.Karimov**